

4. Стребкова Ю.А. Психолого-педагогические условия формирования образа тела в сознании студентов-психологов. - Самара: 2013. - С.178.
5. Харитонов Т.Г. Онтология, специфика и особенности организации психопрофилактики в деятельности практического психолога. - Нижний Новгород: 2012. - С.461.
6. Чиеу Тхи Хыонг. Взаимосвязь самооценки профессионально-значимых качеств и профессионально-педагогической направленности студентов педагогического вуза. - Москва: 2012. - С. 201.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада бўлажак психологларнинг касбий ривожланишида мотивацион соҳани тадқиқ этишнинг назарий асослари таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проанализированы теоретические аспекты развития сферы мотивационного направления будущей психологов.

SUMMARY

Theoretical foundations in exploring motivational sphere for the professional development of future psychologists are analyzed in this article.

YOSHLARGA XALQ HUNARMANDCHILIGI ASOSLARINI O'RGATISHDA KEYS-STADY TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

J.O.Baltabaev - katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: milliy hunarmandchilik, estetik va badiiy tarbiya, "Keys-stady" metodi, savolli keys, muammoli vaziyat.

Ключевые слова: национальные промыслы, эстетическое и художественное воспитание, метод «Кейс-стади», вопро- сительный кейс, проблемная ситуация.

Key words: national craft, aesthetic and artistic education, "Case-study" method, interrogative case, problem situation.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andazalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarini asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir [1].

O'zbekiston xalqining boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsad qilib olingan [2].

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda, ta'lim sohasida ham faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarga katta mas'uliyat yuklaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini boyitish va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va jahon hunarmandchilik turlarining yuksak namunalaridan bahramand qilish asosida tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir.

Hunarmandchilik turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi. Turli ixtisosliklar (kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, tosh-taroshlik, o'yimakorlik, kashtado'zlik, ko'ncilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik va boshqa)ga ajraldi. Yosh avlodning barkamol inson bo'lib etishishida hunarmandchilik ishlarini mukammal o'rganishida estetik tarbiya muhim ahamiyatga ega [3].

Estetik va badiiy tarbiya yoshlarda tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatda bo'lishda, ularni maqsadga muvofiq ravishda ko'rib, idrok etishda, ijodiy mehnat faoliyatini faollashtirishda katta rol o'ynaydi. Bu sohalarida maktablarda, o'quvchilar saroylarida tashkil etilayotgan mehnat ta'limi darslari va xalq hunarmandchiligi to'garaklari ham o'quvchilarga estetik tarbiya berishda katta imkoniyatlarga egadir.

So'ngi vaqtlarda "Keys-stady" metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta'limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya) mohiyati haqida so'z yuritamiz.

"Keys-stady" texnologiyasi (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya; 2) real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi [4].

"Keys-stady" texnologiyasini xalq hunarmandchiligi fanida qo'llashga misol keltiramiz.

Savolli keyslar. 1-keys bayoni

Kirish. Xalq hunarmandchiligi sa'natning teatr, kino, musiqa, tasviriy sa'nat turlari qatori mustaqil kasb etadi. U o'z nomiga ko'ra amaliyotda, yani turmushda qullanadigan bezak san'ati manosi anglatadi. Amaliy badiiy bezak turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish korxonalari, o'quv tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog'liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zar-garlik buyumlari bezagini ham o'z ichiga oladi. Amaliy-bezak san'ati namunalar inson hayotida shunchalik keng uchraydiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin.

O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, inson jismiga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Quyidagi keys - manaviy barkamol va komil insonning aqliy, axloqiy, ma'naviy fazilatlar yuksak bo'lishi, insonlarning chuqur va zamonaviy bilim, keng dunyo qarashi, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi, uning yuksak ma'naviy kamolot sohibi bo'lishining asosiy shakli – yuksak manaviyatning muhim omili ekanligini ko'rsatib berishga imkon yaratadi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo'yicha manaviy taraqqiyot mezonlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan echimning individual va guruhiiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

(Muammoli vaziyat)

Maktab direktori "Mehnat ta'limi" ta'lim yo'nalishini bitirgan yosh mutaxassisni ishga oldi. Ishning daslabki kunidan unga "Xalq hunarmandchiligidan naqshlarning tutgan urni" mavzusida avgust oyida buladigan seminar-da ishtirok etib, ma'ruza o'qishni topshirdi.

Endi bakalavr yo‘nalishini tugatgan yigit uchun bu ancha qiyinchilik tug‘diradi. Chunki u talabalik davrida bu fanni yaqshi o‘zlashtirmagan, bunga uncha qiziqmagan edi. Yosh o‘qituvchi maktab direktoriga bu vazifani bajara olmasligini ayta olmadi.

Tahlil uchun savollar:

1. Maktab direktorining harakatini qanday baholash mumkin?
2. Mazkur vaziyatda Sizning harakatingiz?
3. Ishni nimadan boshlaysiz?

Keysni bosqichma – bosqich tahlil qilish va hal etish bo‘yicha talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot taminoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishish. “Xalq hunarmandchiligi va uning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati” haqidagi axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o‘tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o‘qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo‘ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. Ushbu vaziyat “Xalq hunarmandchiligi va uning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati” to‘g‘risida berilgan dalillarni sanab o‘ting va qaysisi aniqlashtirilishi lozimligini aniqlang.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: “Xalq hunarmandchiligi va uning rivojlanishi, bugungi kundagi ahamiyati” to‘g‘risida maruza o‘qish buning uchun kerakli ma’lumotlarni topish. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob‘ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e’tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling.
4. Muammoli vaziyatni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldirishga kirishing. Muammoni echish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oling va echimini toping. Jadvalni to‘ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova qiling.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring

Vaziyatdagi muammolar Turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys – stadi uchun yozma ish talablari

1. Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (3- varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.
2. Yozma ishini jihozlash tartibi:
 - birinchi betda, o‘ng tomonda talaba ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak;
 - varaqning markazida keysning mavzusi yoziladi;
 - keyin esa keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi.

Keys bilan ishlash qoidalari

Keysda vaziyat tavsifi va axborot taminoti turli hajmda bo‘lish (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlich bo‘lishi, axborot ko‘pligi darajasi ham o‘zgarishi mumkin bo‘lgan – tahlilga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

- Taklif etilayotgan axborotlarni ko‘rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;
- Vaziyatni tor istiqbolda ko‘rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g‘oyib bo‘lishi mumkin;

Harakatlar rejasini vaziyat tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so‘ng shakllantiring. Keysda vaziyat tavsifi va axborot taminoti turli hajmda bo‘limi (bir varaqdan bir necha yuz varaqqacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlich bo‘lishi, axborot ko‘pligi darajasi ham o‘zgarishi mumkin bo‘lgan – tahlilga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

- Taklif etilayotgan axborotlarni ko‘rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;
- Vaziyatni tor istiqbolda ko‘rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g‘oyib bo‘lishi mumkin.

Harakatlar rejasini vaziyat tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so‘ng shakllantiring.

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun

Talabalar ro‘yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob‘ekti aniqlangan maks. 3 b	Muammoli va-ziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko‘rsatilgan maks. 2 b	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari aniq ko‘rsatilgan maks. 5 b	Jami maks.10 b

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhlar ro‘yxati	Guruh faol maks. 1 b	Ma’lumotlar ko‘rgazmali taqdim etildi maks.4 b	Javoblar to‘liq va aniq berildi maks.5 b	Jami maks.10 b
1.				
2.				

8-10 ball – a‘lo, 6- 8 ball – yaxshi, 4- 6 ball – qoniqarli, 0 -4 ball – qoniqarsiz

Adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «Sharq». 1995.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 17-noyabrda PF-5242-son farmoni.
3. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy sanati. -T.: 1991. 384-b.
4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Muslimov N.A., Usmanbaeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. -T.: "Sano standart", 2015. 134-b.

REZYUME

Ushbu maqolada yosh avlodning barkamol inson bo'lib voyaga etishida va ularning estetik va badiiy sifatlarini tarbiyalashda xalq hunarmandchiligi asoslari fanini o'qitishning ahamiyati bayon qilingan bo'lib, bunda "Keys-stady" texnologiyasidan foydalanish usullariga ishlanmalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идёт о значении обучения предмету «Основы народного ремесла» в формировании и воспитании эстетических и художественных качеств для роста и развития всесторонне развитого молодого поколения, а также приводится образец разработки метода «Кейс-стади».

SUMMARY

The article deals with the importance of teaching the subject "Fundamentals of folk handicraft" in the formation and education of aesthetic and artistic qualities for the growth and development of a comprehensively developed young generation and the author of the article gives a sample of the method "Case-study".

ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖОДИЙ МЕХНАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

А.Бердимбетова - катта ўқитувчи

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: мустақил иш, фикрлаш, интеллектуал сифат, ижодий меҳнат, психофизиология, ижодкорлик, муаммо, ёшлар.

Ключевые слова: самостоятельная работа, мышление, интеллектуальное качество, творческий труд, психофизиология, творчество, проблема, молодёжь.

Key words: independent work, creative, thinking, intellectual quality, creative labour, psychophysiology, creation, problem, youth.

Олий педагогик таълим муассасаларида бўлажак меҳнат ва касб таълими ўқитувчиси ижодий меҳнатни шакллантириш масаласи кўп қиррали бўлиб, у талабаларни ижодкорлик фаолиятига тайёрлашнинг самарали йўллари аниқлаш ва мазмунини мувофиқ танлаш билан биргаликда, ўқув жараёнида ижодий меҳнатни бўлажак мутахассисларнинг ижтимоий ва касбий тайёргарлиги билан умумлаштиришнинг аниқ усул ва воситаларини ишлаб чиқишдек муҳим педагогик вазифани ўз ичига олади. Шунингдек ушбу жараён ватанимиздаги ижтимоий-иқтисодий ислохотларни ақс эттириши ва замонавий илмий талабларга тўлароқ жавоб бериши керак [1].

Республикамизнинг бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтиши ва дунё ҳам жамиятига ҳар томонлама кириб бориши натижасида илм олишни ахборотлаштиришнинг амалий йўналтирилган яхлит давлат сиёсати асос солинди, унинг устуворликлари бўлган дастлабки меъриё-ҳуқуқий асослар яратилди. Бунга мисол сифатида "Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида", "Ахборотлаштириш тўғрисида", "Электрон ҳисоблаш машиналари учун дастурларни ва маълумотлар базаларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш тўғрисида", "Алоқа тўғрисида"ги қонунлар ва бошқа дастурий ҳужжатларни келтириш мумкин. Ушбу қонунларга мувофиқ яратилган имконият ва имтиёзлар интеллектуал мулкдан унумли фойдаланишдаги иқтисодий самарани ошириш, янги техника ва технологияларни ўзлаштириш, улар воситасида янги маҳсулотларни ишлаб чиқаришга асосланган интеллектуал мулк инновация жараёнларини ривожлантириш учун янги истиқболларни очиб берди [2].

Инсоният тараққиётининг барча давларида ижодий меҳнат башариятни олға ҳаракатлантирувчи асосий омил бўлиб келган. Шундай экан, ёш авлодни ижодий меҳнатга ўргатиш, уни ўз замонасининг энг илғор билимлари билан қуроллантириш барча давларда ҳамма халқлар учун энг долзарб вазифа ҳисобланган.

Ижодий меҳнатни ташкил қилишда икки ўзаро боғлиқ вазифани эътиборга олиш лозим. Уларнинг биринчиси, талабалар ижодкорлик фаолиятида мустақил фикрлашини ривожлантириш, билимларни

эгаллашдаги интилувчанлиги, илмий дунёқарашини шакллантирилиши билан; иккинчиси, ўзлаштирилган билимларни таълимда ва амалий фаолиятда мустақил қўллай олишга ўргатиш билан белгиланади. Ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ўстириш [3].

Ижодий меҳнат талабалар эгаллаётган билимларининг мустақамлиги ва мукамаллигини таъминлаш, уларда фаол ва мустақил фикрловчи шахс ҳислатларини шакллантириш, ақлий қобилиятларини ривожлантиришга хизмат қилувчи фаолият тури ҳисобланади. Бу ҳолат, айниқса бўлажак меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг фан асосларини ўзлаштиришида, кейинчалик бу жараёнга бевосита раҳбарликни амалга оширишда ижодий ишлар шакллари ишлаб чиқишида муҳим аҳамият касб этади.

Ҳар бир инсоннинг ҳаёти давомида ҳал қилиш зарур бўлган кўпгина муаммолар юзага келади. Инсонлар одатда ўз муаммоларини қандай ҳал қиладилар? Баъзилар ўз интуициясига таянган ҳолда ечимни топишга ҳаракат қиладилар, бошқалари ўзга инсонлар билан маслаҳатлашиб, уларнинг тажрибаси асосида ёки илмий-оммабоп адабиётларни таҳлил қилиб ўз муаммолари ечимини топишга уринадилар, учинчилари эса бу ишни бошқа шахсларга ёки тасодифий ҳолатларга қолдириб, муаммо ечимидан умуман узоқлашишга ҳаракат қиладилар. Инсонларнинг фақат унчалик катта бўлмаган қисмигина ўз муаммоларини ижодий меҳнат ёрдамида ечадилар [4].

Ижодий меҳнатга бўлган эҳтиёж психофизиологик жиҳатдан қаралганда, ўз ривожланишида бир нечта босқичларда амалга ошади. Булардан биринчиси ҳавас - эҳтиёжнинг энг содда шакли бўлиб, инсон томонидан онгли бошқарилади. Иккинчи, нисбатан юқорида ривожланиш босқичи бўлган хоҳиш ҳам инсон томонидан онгли бошқарилиб, у шахснинг маълум буюм ёки ҳодисага нисбатан муносабатлари мажмуаси ифода қилади. Учинчи, энг мураккаб босқич бўлган қизиқиш хоҳиш ва у билан боғлиқ бўлган тушунчалар асосида юзага келади. Қизиқиш ҳаётдаги ташқи таъсирлар, шахс фаолияти ҳамда таълим-тарбия жараёни таъсирида шаклланиб боради. Бу ҳолатлар психологик омиллар - диққат, идрок, тушунча, хотира, фикрлаш, сезги ва ирода ҳислатларига